

Gr.Garmoniya

"Azobdaman yor yor"

Visit "[Azobdaman yor yor](#)" on MotoLyrics.com

Bugun yulduzli kecha, seni visol oqshoming,
Senga faqat baxt tilayman, bo'lsin vafodor yoring.
Xiyonatni ko'rmasin, shaxlogina ko'zchalar,
Men yorimni uzatipayman, yor yor boshlang yangalar

Yarashibsiz oq libosga, qolmadi menda bardosh,
Lekin nega ko'zlaingdan oqayapti tomchi yosh.
Nozikgina barmog'inga tilla uzuk taqilgan,
Ne uchun nigohingda alam o'ti yoqilgan ???

Yoningdagi kiyov bola, boyvachchadek savlati,
Sen qizniya olib ketdi, otasining davlati.
Qancha orzu qilgan edik, bo'ldi barisi sarob,
Endi senga ko'z yosh qoldi menga qoldiku sharob.

Buni taqdir derlar, peshonada bor ekan,
Xafa bo'lma kiyov bola, senga juda mos ekan.
Sevgimizni tushunmasdan ayirdilar nachora,
Qanday baxtli edik bizlar, yuraklar bo'ldi pora.

Bilaman ko'z yoshlarim befoyda,
Endi bildim yoq ekan sevgida hech bir qoida.
Sevgani men yor topdimu, lek uni asrolmadim,
Yuragdagi so'zlarimni, men o'zim armon qildim.

Qara hamma raqs tushar o'zlaricha qilar to'y,
Bu bayramdan baxtli ko'p, baxtsiz bo'ldim bir o'zim.
Qo'y yig'lama yarashibdi ustingdagi oq libos,
Qani endi tabassuming, libosiga tushsin mos.

Qo'y egma boshingni hech yig'lamagin har damda,
Eh sevgilim kechir meni turolmadim vadamda.
Ahtu paymon qilgan edik qismatimiz bu ekan,
Bir qissamiz bor edi-ya yakun qismi shu ekan.

Ota onang baxting uchun balki to'g'ri qilgandir,

Balki meni senga loyiq emas deya bilgandir.
Ne bo'lsada bugun to'ying to'kma zinhor endi yosh,
Senga faqat baxt tilayman,menga tilagin bardosh

Baxt tilayman hayoting baxtga to'lsin,
Sen borgan xonadon doimo nurga to'lsin
Farzandinga ismim qoyib eslab tur meni jonim,
Sog'inganda maxkam quchib,erkalagin armonim.

Yor yor - yor yorlar muborak senga jonim

Mana kunlar ham o'tdi,lek o'tmadi dardlarim,
Seni o'ylab tunlari azobdaman go'zalim.
Ko'zim ochsam yumsam ham hatto xursand bo'lsam ham,
Ko'zlarimda yosh to'lar,yonimda yo'qligingdan

Submitter's comments:Â

Azobdaman YOR YOR

Visit [Gr.Garmoniya](#) page on MotoLyrics.com, to get more lyrics and videos.